Mirzapoʻlat Toshpoʻlatov (1952)



Mirzapoʻlat Toshpoʻlatov (1952)

Mirzapoʻlat Toshpoʻlatov 1952 yili Qarshi tumanining Dashtfayziobod qishlogʻida tugʻilgan. Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida oʻqigan (1970—1976). Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining Adabiy-badiiy targʻibot markazida, «Oʻzbektelefilm» studiyasida xizmat qilgan.

Mirzapoʻlat Toshpoʻlatovning yozuvchi sifatidagi faoliyati 1975 yilda «Guliston» jurnalida chop etilgan «Sodiq» nomli hikoyasi bilan boshlangan. Shundan buyon uning oʻnlab hikoya va qissalari chop etilgan. Bular orasida ayniqsa, «Qaytish», «Gunoh», «Roʻmolcha», «Qatnov» kabi bir qator hikoyalari nafaqat oʻquvchilar, balki ustoz-adiblar e’ti-boriga ham tushgan. 1977 yilda Mirzapoʻlatning «Yurakdagi sir» nomli birinchi hikoyalar toʻplami nashrdan chiqadi.

Mirzapoʻlat Toshpoʻlatovning «Yurakdagi sir», «Beorom toʻlqinlar», «Baxt yulduzi», «Maydonda mardlar boʻlsin», «Oltin axtarayotgan bola» kabi hikoya va qissalardan iborat toʻplamlari chop qilingan. 1994 yilda esa uning tarixiy oʻtmish haqidagi «Sanam gulxanlari» nomli qissasi oʻquvchilar qoʻliga borib tegdi. Mazkur qissada adib Muqanna boshchiligidagi ozodlik harakati haqida hikoya qilgan.

Mirzapoʻlat Toshpoʻlatovning «Gunoh», «Tavba» va «Olov qa’ridagi farishta» kabi asarlari asosida badiiy filmlar suratga olingan.

2023-09-25 22:00:31